

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mavzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" DOSTONIDA MAJOZIY TIMSOLLAR TALQINI

**Tojixon Sabitova**

*CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti,  
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası  
prof.v.b., filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy umrining so‘nggi yillarida, 1499-yilda yozib tugallangan falsafiy-tasavvufiy mavzudagi "Lison ut-tayr", ya'ni "Qush tili" dostonidagi majoz haqida fikr yuritilgan va asardan olingan misollar bilan tahlil etib berilgan.

**Kalit so'zlar:** falsafiy-tasavvufiy, majoz, Semurg‘, kabki dariy (tog‘ kakligi), tovus, mayna, kuf (boyo‘g‘li), hudhud, simvol.

**Абстрактный:** В этой статье Алишер Навои в последние годы своей жизни, в 1499 году, написал метафору философско-мистической темы «Лисон ут-Таур», то есть «Язык птицы», и проанализировал ее на взятых примерах. от работы.

**Ключевые слова:** философско-мистический, образный, Семург, кабки Дари (горная куропатка), павлин, майна, куф (сова), худхуд, символ.

**Abstract:** In this article, Alisher Navoi wrote in the last years of his life, in the year 1499, the metaphor of the philosophical-mystical theme "Lison ut-Tair", i.e. "The Tongue of the Bird", and analyzed it with examples taken from the work.

**Key words:** philosophical-mystical, figurative, Semurg, kabki Dari (mountain partridge), peacock, maina, kuf (owl), hudhud, symbol.

Insonlar ma'naviy kamolotini yuksaltirishga undaydigan "Lison ut-tayr" dostonida Alisher Navoiy insonparvarlik g'oyalarini zo'r kuch bilan ilhomli va ta'sirchan ifodalarda ehtiros bilan talqin etdi. Chunki bu ajoyib go'zal asarda bosh mavzu inson, uning kamolot cho'qqisiga chiqishidir. Butun mavjudot orasidagi eng oliy vujud inson.

*To'rt unsur, yetti ko'k, olti jihat,*

*Nodir-u oliy asosi koinot.*

*Barchasidin ashraf ul inson erur,*

*Kim kamoliga xirad hayron erur.*

Dostonda ana shu yuksak darajaga mansub bo'lmoq uchun inson qanday riyozatlarni chekmog'i, o'zidagi turli tuman illat va nuqsonlardan qanday qilib qutulmog'i mumkinligi to'g'risida so'z boradi. Eng oliy darajaga yetgan o'ttiz qush (Simurg‘) ana shunday kamolot kasb etgan zotlar timsolidir. Bu g'oya Navoiydan oldingi buyuk mutafakkirlar ijodida shakllangan edi. Navoiyning ustozlari Fariddin Attor to'g'risida yozganlari, uning "Mantiq ut-tayr" dostonidan olgan chuqur taassuroti buning shohididir. Navoiyning "Lison ut-tayr" ("Qush tili") dostoni hali har

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tomonlarga va chuqur tahlil etilgan emas. Shunday ekan, bu maqolada majoz masalasi haqida fikr yuritishni ma’qul topdik.

Badiiy asarlarning g‘oyaviy yetuk, mazmunan rang-barang bo‘lishi undagi she’riy san’atlarning o‘z o‘rnida ishlatilishiga bog‘liq. Ma’naviy va lafziy she’riy san’atlar asar tilining badiiy xususiyatlarini o‘rganishda muhimdir.

Mumtoz she’riyatda istifoda etilayotgan ma’naviy san’atlarining umumiy jamlamasi majozda namoyon bo‘ladi. Majoz – arabcha so‘z bo‘lib, o‘z ma’nosida qo‘llanilmay, boshqa ma’noga ko‘chirilgan so‘z va ibora demakdir. Majoz haqida gap ketganda, so‘z yoki so‘z birikmalarini o‘z ma’nosida emas, boshqa ma’noda qo‘llash tushuniladi. Majoz poetik fikrning ta’sirchanligi hamda ilgari surilayotgan g‘oya va mazmunning ifoda ta’sirini oshiradigan stilistik usuldir.

Majoz ko‘chma ma’noda so‘zlar asosida hosil qilinadi. Ko‘chma ma’noli so‘zlar tilshunoslikda stilistik ahamiyatga ko‘ra ma’lum guruhlariga ajratilganidek, ko‘chma ma’no tashishdan iborat bo‘lgan majoz tushunchasi hozirgi lisonimizda simvol, ramz, jonlantirish o‘xshatish, allegoriya kabi atamalarga ega.

Majoz tarkibidagi bir-biridan farqlanuvchi bu atamalarning ko‘pchiligi rus va boshqa chet tillaridan olingan, lekin ular turli nom bilan atalishiga qaramay, bir ma’noni anglatadi. Aslida majoz ko‘chim demakdir. Ammo bularning hammasida birmuncha sezilarli tafovut bor, bu tafovut va yaqinliklarini yorqinroq tasavvur qilish uchun buyuk so‘z san’atkori Alisher Navoiy asarlariga murojaat qilaylik.

Ushbu asarlarda majoziy so‘zlar mahorat bilan istifoda etilgan, xususan, uning tom ma’nodagi majoziy dostoni "Lison ut-tayr" da bu vositaning xilma-xil ko‘rinishlari mavjud. Shoirning o‘zi ham bu haqida "Muhokamat ul-lug‘atayn" ("Ikki til munozarasi") asarida: "chun" "lison ut-tayr alxoni ila tarannum tuzupmen qush tili ishorati bilan haqiqat asorati majoz sur’atinda ko‘rguzupmen" deya dostonni majoz yo’sinida bitganini e’tirof etadi. Shoir "Lison ut-tayr"da ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni ko‘p o‘rinlarda zo‘r mahorat bilan qo‘llagan. Asarning "himmat haqida" hikoyatidan keltirilgan ushbu baytdagi "davlat" so‘ziga e’tibor beraylik:

*Bu sifat keldi eranlarning ishi*

*Bo‘yla davlatqa har kishi.*

Bu o‘rinda "davlat" so‘zi o‘z ma’nosi "boylik, mol-dunyo" da emas, balki, ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, insofli bo‘lish, yaxshilikka erishish tushunchasini ifodalab kelgan. Shoirning fikricha, hamma ham insofli, adolatli bo‘lavermaydi. Bu bilan shoir olijanob, himmatli, bir-biriga muruvvatli bo‘lishga undaydi. Shoir "davlat" so‘zini yana bir o‘rinda majoziy ishlatib, uni podshohlik, hukmdorlik ma’nolarida qo‘llagan:



# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Davlatning dushmani xayl-u mute,  
Barcha afv-u xalqini aylab shafe.*

Dostonning “podshohi islom duosi va uzrxohlik adosi” xotimasidan olingan bu baytda "davlat" so‘zi orqali Navoiy oliy hukmdorga o‘zining madhini qush tili orqali bayon etadi. Bu o‘rinda podshoh Husayn Boyqaro saltanatining madhi nazarda tutilgan "ka'baga ziyorat qilguvchi murid" hikoyatidan olingan mazkur baytda "davlat" so‘zi ka'bani ziyorat qilish sharafi, ka'baga yetishish siri ma'nolarida ishlatilgan.

*Senda yo 'q erdi bu davlatni shuur,  
Tolib erdin, lok sayingda xusus.*

Alisher Navoiy majoziy so‘zlarni qo‘llar ekan, bulardagi shayx "shayx San'on" hikoyatida yana "davlat" so‘ziga qaytib, shayx sevgisini (tarso qiziga ishora) "davlat" deb atab so‘z o‘yinini qiladi:

*Muttafiq bori dedi: -K -ey muqtado,  
Chun nasib etti bu davlatni Xudo.*

Shuningdek, mazkur dostonda “davlat” so‘zi baxt, iqbol, maqsad ma'nolarida ham jilvalanib majoz hosil qilinganini ko‘ramiz. Quyida "Hudhud javobi" dan olingan bayt:

*Topsa bu davlatni har oliy nihot  
Mundin ortuq yo 'qdurur bu yo 'lga zot.*

Shoir "hudhud" tilidan barcha qushlarga tushuntirib, biz oliy dargohga yetishsak, hammamiz baxtli bo‘lamiz, oldimizdagi maqsad amalga oshadi, degan fikrni uqtira olgan.

"Lison ut-tayr" da arabcha "do‘kon" so‘zi ham bir necha o‘rinlarda majoziy ma'nolarda qo‘llanilgan, lekin har bir o‘rinda boshqa-boshqa ma'noda, majoziy tasvirni ifodalab kelgan. "Do‘kon" so‘zi aslida har narsa sotiladigan joy, ishxona ma'nolarini bildirsa, dostonning ba'zi hikoyalarida butunlay ko‘chma ma'noda qo‘llanilgan:

*Urmish erdi tashlag'on asrori tob,  
Ko 'rdi do 'konlarda ne 'mat behisob.*

"Soxta qalandar" hikoyatidan olingan ushbu baytda "do‘kon" bozordagi maydachuyda sotiladigan do‘kon ma'nosida qo‘llanilgan.

*Chun manga Attor do 'konidin ish,  
Shakar-u qand olmoq erdi yoz-u qish.  
Tengrining lutf-u inoyat xonidin  
Ya'ni, ul Atorning do'konidin.*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Alisher Navoiy bu baytda majozan "do‘kon" so‘zini Farididdin Attorning ijodxonasiga va uning "Mantiq ut-tayr" asariga ishora qilgan. Shoirning fikricha, Farididdin Attorning ijodidan foydalanish, uning purma‘no asarlaridan "shakar-u qand", ya‘ni shirin lazzeatli ma‘nolar olishdir, deydi. Bu kabi so‘z o‘yinlari va ko‘chma ma‘noli so‘zlar dostonida juda ko‘p uchraydi. Masalan, "dur" so‘zining inju, marvarid, yoqut, kabi qimmatbaho toshlar ma‘nosidan tashqari "Mantiq ut-tayr"ga ishora:

*Durga garchi topmasa ham dastras,  
Yig‘sa daryo mavjidan xoshok-u xas.*

Shoir o‘z dostonining tematik jihatidan ko‘p qirrali va rang-barang bo‘lganligini asarda, qissa, hikoya, savol-javob, munozara, yetti vodiy tasviri, tavsifi kabilarni tasvirlashda, bayon etishda so‘z san‘atining turli vositalaridan mohirlik bilan foydalanganligini qayd qilmoq lozim. Umuman, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr"i majoz vositasida yanada yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi, g‘oyaviy mazmuni o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlar tufayli yorqin ifodaga ega bo‘ldi.

Majoz turlaridan yana biri simvoldir. Simvol yunoncha shartli belgi so‘zidan olingan bo‘lib, bunda fikr obrazli ifodalanadi. Obraz shartli ravishda ko‘chma ma‘noda ishlatiladi. "Lison ut-tayr"da qo‘llanilgan ko‘pchilik obrazlarni, jumladan, qushlar obrazini ham simvolik obraz deyish mumkin. Ularning har biri ramziy ma‘noni bildiradi. Aslida simvol-ramz, bir xususiyatga ega. Ba‘zan simvolni metaforaning bir turi deb ham hisoblaydilar. Dostondagi simvolik obrazlardan biri Semurg‘dir. U asarda o‘zining tashqi ko‘rinishining xususiyatlari bilan aniq gavdalanmasa-da, lekin asarlardagi voqea-hodisalar uning nomi bilan chambarchas bog‘liq. Semurg‘ asarda baxt-saodat timsoli, shuningdek, afsonaviy go‘zal qush, buni biz hudhud tilidan bayon etilgan ushbu baytdan ham anglab olishimiz mumkin:

*Barcha olam qushlariga shoh ul,  
Holingizdan mo‘bam-u ogoh ul.*

Shoirning fikricha, semurg‘ "barcha olam qushlariga shoh" hamma narsadan "ogoh" xabardor, va u (semurg‘) dunyoda mashhur, uning tengi yo‘q, u yagonadur. Asarda semurg‘ obrazidan tashqari hudhud obrazi bilimdon, olim, yo‘lboshchi shayxning ramziy obrazi sifatida tasvirlansa, to‘ti obrazi sharq xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagidek, u asarda ham donishmand va shirin so‘zlik simvoli sifatida gavdalangan. Boyqush obrazi mol-dunyoga hirs, xarobalik timsoli hisoblanadi. Dostonida bu obraz nafsiga qul, xasis kishining ramziy obrazi sifatida qo‘llanilgan. Asarda hudhud bilan kuf (boyqush)ning o‘zaro savol-javobi quyidagi baytda yorqin tasvirlangan.

*O‘tkaribman umrni vayronada ,*



# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Boshima yemrulgudek koshonada.*

deb afsuslansa, so‘ng:

*Menki ganj ummedidin devonamen,  
Kecha-kunduz sokini vayronaman.*

deb o‘zini koyigandek bo‘ladi.

Aytish kerakki, shoir dostonida qushlarning simvolik obrazlari orqali kishilarning ruhiy holatini, kechinmalarini badiiy ifodalab, ko‘chma ma’noda qo‘llagan. Bunda majozning turlaridan yana biri allegoriya ifodalangan. Bunda so‘zlar majoziy obrazlar orqali o‘z ma’nosidan boshqa ma’noga ko‘chiriladi. Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida majozning bu turini ham qushlar obrazi timsolida turli toifadagi, har xil tabaqadagi odamlarning allegoriya obrazini yaratish maqsadida foydalangan. Shoir "Lison ut-tayr"da bir nechta qushlar obrazini yaratgan.

*Shuhrati Semurg‘ ila ofoq,aro,  
Zoti mamlu charx oliy toq aro.*

Dostondagi "qushlar shah tilab topmog‘indin muttxayiir bo‘lg‘onda, hudhud semurg‘din xabar degoni" sarlavhasi ostidagi bu mazkur baytda afsonaviy go‘zal qush obrazi yaratilib, qushlarning ideal maqsadi sifatida aks ettiriladi.

*Har parida yuz tuman rang-u ajib,  
Lek har rangida yuz naqshi g‘arib.  
Naqsh-u rangidin xirad ogoh yo‘q,  
G‘ofil ekronga xirad ikrox yo‘q.*

Semurg‘ obrazi asarning mazkur bobida so‘z o‘yini sifatida o‘ttiz qush ma’nosida qo‘llanilgan.

*Kim magar Simurg‘ ko‘rguzgay liqo  
Bu fanolardin yetishkay ul baqo.  
Ko‘rdilar o‘zni qayonkim tushdi ko‘z,  
Olloh-olloh ne ajoyibdur bu so‘z.  
Kim qilib semurg‘ o‘tuz qush havas,  
O‘zlarini ko‘rdilar ul si murg‘u bas.*

Dostondagi asosiy allegorik obrazlaridan yana biri hudhuddir. Hudhud obrazi ko‘z o‘ngimizda bilimdon, notiq, yo‘lboshchi kabi fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, keng tafakkurli kishi sifatida gavdalanadi. Bu xususiyatlar uning murojaatida, xatti-harakatida va savol-javoblarida aks etgan:

*Hudhud anfosini shakarrez ayladi,  
Ul shakarini nuqtaomez ayladi.  
Ko‘rdi chun qushlarda andoq iztirob*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Berdi ul majma'ga bu yanglig' javob.*

Asarda Semurg‘ haqidagi barcha xabar yoki yangiliklarning hammasi hudhud tilidan aytiladi. Umuman, dostonida hudhud qushlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, ularga pand-nasihat qiluvchi, umumtasavvufiy fikr yurituvchi shayx, pirning allerogik obrazi sifatida ifodalangan. Bu xususiyatlarni to‘tining o‘z nutqidan aytilgan so‘zlardan ham anglash qiyin emas:

*Ro‘baro‘yim gah bir ko‘zgu bo‘lib,  
Gah ko‘zgu chehralik mahru bo‘lib.  
Ko‘rmayin umrimda juz komi nishot,  
Elga nutqumdan yetib yuz inbisot.*

Dostondagi Tovus obrazi ham o‘zining xarakterli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu o‘rinda shoir, tovusning husni haqida gapirar ekan, o‘zining tabiiy go‘zallik borasidagi fikrlarini obrazli tasvirlagan. Shuningdek, tovus obrazi husni bilan maqtananadigan kibor sifatida ham namoyon bo‘lgan. Tovusning tabiiy go‘zalligi hudhud nutqida quyidagicha ta’riflanadi:

*Qomatingga qistavi husn-u jamol,  
O‘ylakim vasfida oning nutqi lol.  
Ham yaroshib xilqatingg'a xo‘bliq,  
Ham muvofiq zotingga mahbubliq.*

Shoir bu allegorik obraz orqali jamiyatda uchraydigan ayrim kamchiliklarni, nuqsonlarni, o‘ziga mahliyo bo‘lib yuruvchi kishilarni tanqid qiladi. Bu xususiyatlarni Navoiy "Hudhud"ning javobi tovusqa" sarlavhali epizodda hudhud nutqi orqali ta’sirchan ifodalaydi.

*Odam o‘lgon zebi zahiridin demas,  
Kimki ondin faxr etar odam emas.  
Noz ila uldi shahidlar ishi,  
Dard-u mehnat birla xushdur er kishi.*

Bunda Navoiy aytadiki, "noz" karashma, jilva qilish, o‘ziga zeb berish, "shohid"lar ya’ni dilbarlar, nozaninlar, aniqrog‘i xotinlar ishidir. Mehnat qilish, foydali ishlar bilan shug‘ullanish er kishining ishi, haqiqiy inson shunga amal qilishi kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Asardagi boshqa qushlarni ham shu tariqa turli xil toifadagi kishilarning allerogik obrazi sifatida qabul qilish lozim. Kabki dariy (tog‘ kakligi) o‘zini jamiyatdan uzoq tutib, hamma narsadan kechgan, tog‘ orasida makon tutgan kishining allerogik obrazi sifatida ko‘zga tashlanadi. Uning maqsadi jamiyatdan ajralsa-da, tog‘dagi barcha "ganj" larga ega bo‘lishdir:

*Men qushedurmen - kuhiston manzilib,*



# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Onda tengri hamdiga zokir tilim.  
Dahr eli oshubidin silkib etak,  
Tog' etogingda topib oromu tek.  
Tog' ganji chun manga bo'ldi mafar.  
Ne munosib hamma mundoq safar,  
Kon uza doim xiromimdur mening,  
Gavhari bu ishda komimdur mening .*

Yuqoridagi fikrlar "kuf" (boyqush) obraziga ham tegishli, shoir boylik orttirish, unga qaram bo'lib yashash yaxshilikka olib kelmasligi haqidagi fikrlarini Hudhudning "Kabki dariy" va "kuf" bilan qilgan munozarasida bildirgan.

"Lison ut-tayr" da yana Shunqor obrazi orqali o'zini shoh deb hisoblovchi, Humoy misolida esa xosiyatli qushman, ya'ni yaxshi odamman, deb lof uruvchi maqtanchoq kishilarning allerogik obrazi yaratilgan. Chunonchi, qarchig'ay obrazi misolida shohlar qo'lida xizmat qiluvchi, shundan mamnun va mag'rur, ammo vaqt o'tib, nadomat chekishini bilmagan nodon kimsa timsoli tasvirlangan. Asardagi "Qarchigoy uzri" sarlavhasi ostida berilgan nutqda buni anglash oson:

*Shoh qo'li taxtimdur-u boshimda toj,  
Yo'q manga Semurg' sori ehtiyoj.*

Navoiy tomonidan bu o'rinda, jamiyatda ana shunday kishilar topilishi, alhol o'zlari bilmagan holda xato qilishlari, ko'pchilik ular tufayli jabr tortishlari yuqoridagi qator allegorik obrazlar kesimida yoritilgan.

Qisqasi, "Lison-ut-tayr" dostonida majoz vositalarining xilma-xil ko'rinishlaridan ustalik bilan foydalanilgan. Dostonda majozning simvol, ramz, va allegoriya kabi turlarining keng istifoda etilishi, mazmunga joziba kiritganini va shu tufayli voqealar dinamikasi ta'minlanganini, natijada asar ta'sirchan satira bilan yo'g'rilganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari asarda qo'llanilgan so'z o'yinlari, jonlantirish, intoq-nutq bir so'zni ikki yoki uch ma'noda ishlatish, yashirin ma'no tashish xususiyatlari ham majoz san'atining turlaridan hisoblanadi. Majozning tarkibi hisoblangan bu she'riy san'atlarning har biri qadimiy an'analarga ega. Ma'naviy san'atlar qatoridan o'rin olgan istiora, iyhom, intoq, tashxis, ittifoq kabi she'riy san'atlar ham majoz ko'rinishlaridandir.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 12-tom. Toshkent. Fan. 1996. 326. B. 27, 30-33, 35, 46, 59, 67,73,80, 182, 268
2. Aziz Qayumov. Asarlar. 2-tom. Toshkent. Mumtoz so'z. 2008.
3. Dilnavoz Yusupova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Akademnashr. 2013. 271